

ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDA INSONIY FAZILATLARNI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Yo‘ldoshev Ibrohim Jo‘rayev

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Filologiya fakulteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası filologiya fanlari doktori, professor.

E-mail: ibrohimyuldashev0101@gmail.com

Qodirova Feruza Bonu Zuxriddin qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti filologiya fakulteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi I-bosqich talabasi.

E-mail : zuxriddintojiboyev41@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk shoir, mutafakkir, o‘zbek tilining asoschisi bo‘lgan Mir Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida insonga xos fazilatlarni e‘tirof etuvchi so‘zlarning semantik tahlili ochib beriladi. Navoiy ushbu asarda turkiy tilni fors tilidan qolishmasligini, uning boyligini, qudratini, o‘sha zamondagi adabiy tillar bilan teng mavqeda bo‘lishga haqli ekanligini isbotladi. Alisher Navoiy so‘zlarning ko‘p ma‘noliligini ya‘ni sinonimlar jihatidan ham turkiy tilning ustunligini ifodaladi. Alisher Navoiy o‘zbek tili va fors tilini leksik jihatdan qiyoslab ko‘rsatish maqsadida bir qancha sohaga oid so‘zlarni keltirgan va shu orqali turkiy tilning boy imkoniyatlarini har tomonlama ochib bergan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Muhokamat ul-lug‘atayn, semantik tahlil, taqqoslash, tahlil qilish.

Annotation: This article presents a semantic analysis of words in Mir Alisher Navoiy’s “Muhokamat ul-lug‘atayn” that reflect human qualities. In this work, Navoiy demonstrated that the Turkic language is not inferior to Persian, highlighting its richness, power, and its right to stand on equal footing with the literary languages of his time. Alisher Navoiy also emphasized the polysemy of words, expressing the superiority of the Turkic language in terms of synonyms. To compare the Uzbek and Persian languages lexically, Navoiy included words from various fields, thereby comprehensively proving the extensive capabilities of the Turkic language.

Keywords: Alisher Navoiy, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, semantic analysis, comparison, analysis.

Аннотация: В данной статье представлен семантический анализ слов, обозначающих присущие человеку добродетели, в произведении “Мухокама́т ул-лугата́йн” великого поэта, мыслителя, основоположника узбекского языка Алишера Навои. В этом труде Навои доказал, что тюркский язык ни в чём не уступает персидскому, его богатство и мощь по праву могут занимать равное положение с другими литературными языками той эпохи. Алишер Навои продемонстрировал многозначность слов, а именно – показал превосходство тюркского языка с точки зрения синонимических богатств. С целью сопоставления узбекского и персидского языков на лексическом уровне, он привёл слова из

различных областей, тем самым всесторонне доказав богатые возможности тюркского языка.

Ключевые слова: Алишер Навои, “Мухокамат ул-лугатайн”, семантический анализ, сравнение, анализ.

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek adabiyoti, balki, butun turkiy xalqlarning madaniyatida, tarixida beqiyos o'rin egallagan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobidir. U o'zining chuqur falsafiy fikrlari, serqirra ijodi, ilmiy izlanishlari hamda badiiy mahorati orqali insonlarning tafakkuri yuksalishiga katta hissa qo'shgan. Navoiy o'zining hayoti davomida o'zbek xalqining ma'naviy dunyosini yuksaltirgan, insonparvarlik, adolat g'oyalarini kuylagan. Bundan tashqari yaratgan asarlari bilan turkiy tillarning imkoniyatlarini kengayishiga turtki bo'lgan. Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asari o'sha davrda muhim hisoblangan ilmiy masalaga bag'ishlangan. Asarda forsiy va turkiy tilni qiyoslash orqali turkiy so'zlarning imkoniyatini, ohangdorligini, ifoda kuchini va ruhiy teran ekanligini dalillab beradi. U turkiy tildagi har bir so'zni tahlil qilar ekan, insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlarni ham chuqur ifoda etadi. Shuning uchun ham ushbu asarni o'rganish, qolaversa, insoniy fazilatlarini ifoda etuvchi so'zlarni tahlil qilish hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning asarida keltirilgan insoniy fazilatlarini ifodalovchi so'zlar tahlili qilinadi, ularning mazmuni hamda shoir bu orqali ifodalagan tarbiyaviy g'oyalar yoritiladi.

Navoiyning nazarida til - insonning ma'naviy qiyofasini ifoda etuvchi eng muhim vosita. “Muhokamat ul-lug'atayn”da turkiy tildagi so'zlarni boy semantik imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, o'sha so'zlarning axloqiy ma'nosiga ham e'tibor qaratgan. Asarda boshqa so'zlardan o'zining shakli, ishlatilishi jihatidan ajralib turgan “afsaxu” so'zi haqida bir qancha ma'lumotlar bor. Bu so'z arab tilidan kelib chiqqan sifat bo'lib, “eng fasohatli”, “nutqi chiroyli” degan ma'nolarni anglatgan. Navoiy bu so'zni “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida turkiy tilning fasohatini fors tiliniki bilan solishtirish uchun ishlatadi. Bundan tashqari ushbu so'z orqali turkiy tildagi so'zlarning “afsax” ya'ni eng chiroyli hamda ifodaviy jihatdan boy ekanligini isbotlaydi. Alisher Navoiy o'zining “Muhokamat ul-lug'atayn” asarining muqaddimasida bu so'zni shunday izohlaydi:

“Mutallimimke, arab fusaxosi balog'at gulbongin sipexr gulshanidin oshurg'onda aning bulbul nutqi “ano afsaxu” tarannumi bila alarni zabonbast va da'vilari ovozasin erga past qildi”.³²

Ushbu badiiy jumla orqali ta'lim va balog'atli nutqning transformativ kuchi chuqur ramziy ifoda topgan. Mutallim[o'qituvchi]ning oliy ma'naviy manbalardan olgan bilimi va bu bilimni yetkazishdagi mahorati tasvirlanadi. Jumlada bilimning yuqori, ilohiy manbalardan olinishi “sipexr gulshanidin oshurg'onda” ifodasi orqali, klassik ta'lim an'alariga murojaat esa “arab fusaxosi balog'at” orqali ifodalangan. Bu haqiqiy bilim donolik va ma'rifat bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Nutqning jozibador kuchi esa “bulbul nutqi” metaforasi orqali tabiatdagi eng shirin ovozga o'xshatilgan, “ano afsaxu” tarannumi esa o'ziga ishonch va iymon bilan yetakchilik

³² Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to'plami .Muhokamat ul-lug'atayn . XX tom . XVI tom T.: Fan nashriyoti .2000-yil.B-4

qilishni ifodalaydi. Bu samarali ta'lim jozibador nutqni talab qilishini anglatadi. Bundan tashqari Navoiy afsaxu so'zini turkiy til bilan bog'lab shunday misol keltiradi:

“Borchasining a'zamiyu afsaxi”

Anglaki, kelmish nabiyi Abtaxiy”.³³

Bu qisqa lekin chuqur ma'noli jumla orqali turkiy tilning lingvistik qadri va madaniy ahamiyati kuchli ifodalangan. Jumlada turk tilining arab tiliga nisbatan “afsax” [fasohatli] jihatdan hech qanday kam emasligi ta'kidlanadi. Navoiy Borchaxonning nasl-nasabini Islom an'analariga muvofiq ulug'laydi. Bu da'vo nafaqat tilning lingvistik imkoniyatlarini himoya qilladi, balki madaniy tenglik va milliy o'zlik g'oyasini ilgari suradi. Bunday so'zlardan yana biri bu “mubaddal” so'zi arabcha [badala] ildizidan kelib chiqqan bo'lib, “o'zgartirilgan”, “almashtirilgan”, “bir o'miga qo'yilgan” degan ma'nolarni bildiradi. Alisher Navoiy o'zining “Ey sabo, holim borib...” nomli g'azalida ushbu so'z bilan ajoyib bayt yaratadi:

“Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili,

Kufr ila bo'lmish mubaddal, nomusulmoning a'yt”.³⁴

Navoiy [ehtimol Navoiyning lirik qahramoni] ma'shuqaning “zulfi” [sochlari] ni nasroniy rohibning “zunnoriga” [rohiblar belbog'i] o'xshatadi. Ya'ni uning zulfi go'yo zunnor kabi shundayki, men o'sha zunnorga bog'lanib, dindan chiqdim, iymonimni kufrga almashtirdim. Bu holimni borib nomusulmon sevgilimga ayt. Oshiq ma'shuqaning go'zalligi sababli o'z iymonini yo'qotgan, kufr ramziga berilib ketganini ishq tili bilan ifodalaydi. Bu orqali shoir ishqning kuchi shu darajada buyukki, hatto dinni ham o'zgartirar darajada deb ta'kidlaydi, albatta bu majoziy, tasavvufiy ma'no, haqiqiy dinsizlik emas. Vola ham Alisher Navoiyning g'azaliga muxammas yozadi va shu g'azal ichida shunday ta'riflaydi:

“Subhimni, jono, aylanmish hajring mubaddal shomg'a,

Lekin tarahhum qilmading hargiz meni nomokomg'a,

Ishqing meni zor ayladi tushgan kibi qush domg'a,

Ul g'amza kufridin ko'ngul nav'e kelur islomg'a,

Kim tarki islom aylabon go'yoki kofir bo'lg'usi”.³⁵

Vola ushbu g'azali orqali oshiq ma'shuqaning g'azabi va ishq tufayli azobga tushganini bildiradi. „Mubaddal” so'zi almashtirish ma'nosida ishlatilgan: oshiqning ruhiy holati ishq sabab o'zgargan, avvalgi iymoniy barqarorligi buzilgan. „Kufr” va „Islam” so'zlari bu yerda majoziy ma'noda ishlatilgan: ishqning kuchi oshiqni hatto diniy hissiyotlari bilan solishtiriladigan holga keltiradi. To'liq mazmuni esa, ey sevgilim, sening g'azabing va ishqing meni o'zgartirdi, azobga soldi, go'yo ruhimni qayta shakllantirdi. Sening nigohing meni ba'zida iymondan chiqargandek, ishqning qudratini his qilaman. Agar kishi ishqni rad etsa, go'yo hayotdan mahrum bo'lganday bo'ladi. Yuqoridagi so'zni mazmun jihatdan to'ldiruvchi yana bir so'z „zabonbast” bu so'z forscha bo'lib ikki qismdan tuzilgan: zabon -, „til”, bastan-, „bog'lamoq”, „yopmoq” so'zma- so'z ma'nosi „tili bog'langan”, „tili yopilgan” degani. Ya'ni „zabonbast”

³³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Hayrat ul-abror. VII tom. T.: Fan nashriyoti. 1991-yil. B-108

³⁴ Alisher Navoiy. Ey sabo holim borib... g'azali. Wikisource.wikisource.org

³⁵ Alisher Navoiy g'azaliga muxammas. Vola III. Wikisource. Wikisource.org.

soʻzi gapira olmay qolish, soʻz topa olmay qolish, hayajon yoki qoʻrquvdan til tutilish maʼnolarida ishlatiladi. Mumtoz adabiyotda ushbu soʻz koʻpincha koʻngil holatini yoki ishqiy iztirobni ifodalashda qoʻllanadi. Alisher Navoiy oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarining muqaddimasida bu soʻzni shunday izohlaydi:

“Mutallimimke, arab fusaxosi balogʻat gulbongin sipexr gulshanidin oshurgʻonda aning bulbul nutqi “ ano afsaxu” tarannumi bila alarni zabonbast va daʼvilari ovozasin erga past qildi”.³⁶

Ushbu satrlar orqali Navoiy soʻzning qudrati va badiiy taʼsirini madh etadi. Nutq nafaqat axborot yetkazadi, balki ruhiy taʼsir, ohang va seyr bilan tinglovchilarni ilhomlantiradiva ular magʻlub boʻladi. Bu yerda “zabonbast” soʻzi nutqning taʼsiridan raqiblar soʻzini chiqarolmay qoldi, ularning daʼvolari va ovozi pasayib ketdi degan maʼnoni bildiradi. Bu Alisher Navoiyning badiiy ifodasi boʻlib nutq qudratini va soʻz sanʼatining taʼsirini koʻrsatadi.

Navoiy oʻz asarida shunday noyob va ulugʻvor soʻzlardan foydalanganki, asarni oʻqish davomida nafaqat asarga, balki, soʻzlarning tarjimasiga ham qiziqib qolasan. Shunday soʻzlardan biri, yaʼni oʻz tarjimasiga bilan ajralib turgan soʻz “muloyamat” soʻzi boʻlib, kirib kelish tarixiga koʻra, arab tilidan oʻzlashtirilgan boʻlib, Navoiy asarida 1.Yumshoqlik, muloyimlik; 2. Uygʻunlik, muvofiqlik, moslik maʼnolarida ishlatilgan. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida shunday nozik misra keltirilgan:

Soʻzi muloyamat birla boʻlgʻay,

Muloyamat soʻzi dilga yoʻlgʻay”.³⁷

Bu misrada Navoiy inson soʻzining taʼsirini muloyamat bilan bevosita bogʻlaydi. Shoir fikricha, soʻzning taʼsiri faqat yumshoqlik, xushmuomilalik va odob bilan aytilganda yuraklarga kiradi va insonlar oʻrtasidagi mehr rishtalarini mustahkamlaydi. Navoiy muloyamatni shunchaki yumshoqlik sifatida emas, balki insoniy fazilatlarining eng muhim koʻrinishi sifatida koʻrsatadi. Bu misrada „soʻzi muloyamat birla boʻlgʻay” degan qism, soʻzning mazmuni va ohangining inson qalbiga qanchalik taʼsir qilishi muloyamat bilan bogʻliqligini bildiradi. Shu sababli, maqolalarda muloyamat tushunchasi haqida gapirganda, Navoiy misrasi adabiy dalil sifatida mukammal ishlatiladi. Bundan tashqari, Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yohud” asarida ham ushbu soʻzga bir qancha taʼrif berilgan:

Goʻzal xulq, muloyamat va odob-insonni inson qiluvchi fazilatlardandir”.³⁸

Avloniy bu misrada muloyamatni inson axloqining ajralmas qismi sifatida taʼkidlaydi. U shuni bildiradiki, insonning tashqi muomalasi va ichki fazilatlarini bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, goʻzal xulq va muloyamat insonning shaxsiyatini shakllantiradi. Misrada muloyamat faqat soʻz yoki muomala orqali emas, balki umumiy xulq-atvor va odob bilan namoyon boʻlishi muhimligi koʻrsatilgan. Shu tariqa, Avloniy muloyamatni axloqiy barkamollik va jamiyatdagi hurmat belgisi sifatida asoslab beradi. Maqolalarda bu misra orqali muloyamatning jamiyatda ijobiy roʻl oʻynashi va insoniy fazilat sifatida qadrlanishini dalil bilan

³⁶ Alisher Navoiy . Mukammal asarlar toʻplami .Muhokamat ul-lugʻatayn . XX tom . XVI tom T.: Fan nashriyoti .2000-yil.B-4

³⁷ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.T.:Yoshlar nashriyoti uyi. 2018-yil

³⁸ Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud axloq kitobi.T.: Yoshlar nashriyoti uyi. 2018-yil

ko'rsatish mumkin. Muloyamat so'zi odoblilik, yumshoqlik va insoniy fazilatlarini ifodalasa, „ajlof“ so'zi unga zid ma'noda qo'llanib, qo'pol yoki madaniyatsiz shaxsni anglatadi. Shu bois bu ikki so'z tilda axloqiy mezonlarning qarama-qarshi qutblarini tashkil etadi. Hozirda ajlof so'zini tahlil qilamiz. Ushbu so'z arabcha so'z bo'lib asosan „qo'pol“, „madaniyatsiz“, „odobsiz“, „sodda xalqdan chiqqan“ ma'nolarini bildiradi. Bu so'z „joloof“ shaklida ham uchraydi. U arab tilidagi „ajlaf“ ildizidan kelib chiqqan. Alisher Navoiy o'zining „Muhokamat ul-lug'atayn“ asarida bu so'zga shunday ta'rif beradi:

“Va sort orasida axli tab va donish zumrai ilmu zehn va biynish ko'prakdur. Va turk elida ajlof va soda el sortdin ziyodadur”.³⁹

Ushbu jumla ikki qismdan iborat bo'lin quyidagicha tahlil qilinadi. “Va sort orasida axli tab va donish zumrai ilmu zehn va biynish ko'prakdur”. Bu birinchi jumla hisoblanadi. Ya'ni mazmuni bu qism insonlar yoki xalq orasida aql, tabiiy fazilat, bilim va tafakkur darajalarini ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda birinchi qism insonlar orasida aql va bilimning farqini ko'rsatadi. Ikkinchi qism ya'ni, “Va turk elida ajlof va soda el sortdin ziyodadur” bu jumlada turk xalqi haqida ijtimoiy tavsif beradi. “Ajlof el”- sodda, kam bilimli, oddiy xalq; “soda el”- bilimli, tafakkurli guruh; “sortdin ziyodadur”- ustunlik qiladi, ko'proq tarqalgan, ya'ni bu ikki guruh orasidagi tafovutni bildiradi. Umumiy qilib aytganda esa, misra inson va xalqning bilim, va tabiiy fazilatlarini farqini, shuningdek ijtimoiy tabaqalarni falsafiy nuqtai nazardan tasvirlaydi. Hozirgi tahlil qilmoqchi bo'lgan so'zimiz yuqoridagi so'zga ma'no jihatdan ancha yaqin hisoblanuvchi “soda” so'zidir. Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib, “aql, tafakkur, ruhiy go'zallik, ziyraklik” degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, turkiy tillarda ham bu so'z aynan ilm ma'nolarida ishlatilgan. Bundan tashqari bu so'z insonning ichki ziyrakligi, ruhiy go'zalligi, tafakkir yorqinligi bilan bog'liq. Alisher Navoiy o'zining “Muhokamat ul-lug'atayn” ida bu so'zni shunday ishlatadi:

“Oqibat makr va fusun bila obid sodadin iqrar tortti va ham aning maxosini tukidin bosh bormog'in bog'lab, kufforg'a topshurdi”.⁴⁰

Jumla shuni bildiradiki, obid [shaxs] sehr va mahorat yordamida aql [soda]ni tan olishga majbur qilindi, uning sirli narsalari bosh barmoqqa bog'lab, dushman qo'lga topshirildi. Ya'ni, voqelikda insonning aql va sirlarini nazorat qilish va dushman qo'lga tushish xavfi ifodalangan. Navoiy yana boshqa misralarida ham bu so'zdan mahorat bilan foydalangan:

“Chun Xarif soda kishi erdi va xarif muzavvir Obidqa bir ism o'rgatdikim, bemorlarga mujibn shifodur”.⁴¹

Bu misradan shu anglashiladiki, Xarif[donishmand] aql va ziyraklikka ega bo'lsa, Xarif muzavvir[mahoratli, soxta, yoki o'yin ko'ruvchi] esa Obidga[shaxsga] foydali bo'ladigan bir ilm yoki ismni o'rgatdi. Bu ilm bemorlarga shifo bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, misra bilim va mahorat orqali insonlarga foyda yetkazish, shifo va yaxshilik berish mavzusini ifodalaydi.

³⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Muhokamat ul-lug'atayn. XX tom. XVI tom T.: Fan nashriyoti. 2000-yil. B-8

⁴⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Muhokamat ul-lug'atayn. XX tom. XVI tom. T.: Fan nashriyoti. 2000-yil. B-186

⁴¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Muhokamat ul-lug'atayn. XX tom. XVI tom. T.: Fan nashriyoti. 2000-yil. B-184

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul- lug`atayn” asarida insoniy fazilatlarni ifodalovchi so`zlarning tahlili tilning leksik va semantik boyligini ochib beradi. Asarda so`zlar nafaqat ma`no jihatdan boy, balki insoniy xislatlarni aniq tasvirlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turkiy va arabiy so`zlarning uyg`un ishlatilishi Navoiyning til san`atini namoyon etadi va bu asarni insoniy fazilatlarni o`rganish hamda leksik boyligini chuqur tahlil qilish uchun muhim manba qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. “ Muhokamat ul-lug`atayn”. Yigirma tomlik. O`n oltinchi tom. –T.: Fan nashriyoti, 2000.- 329 b
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. “ Hayrat ul-abror ”. Yettinchi tom. T.: Fan nashriyoti, 1991.- 422 b
3. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018.-172 b
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq .T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018.- 94 b
5. Navoiy asarlari lug`ati.- T.: “G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti”, 1972.-784 b

[https://wikisource.org/wiki/Alisher_Navoiy_g%E2%80%98azaliga_muxammas_\(Vola,_III\)](https://wikisource.org/wiki/Alisher_Navoiy_g%E2%80%98azaliga_muxammas_(Vola,_III))